XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-112-8-111-K/25 Denov tumani

Denov tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-Q/25-son qaroriga muvofiq hamda Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 22-13-04/134-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Denov tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-Q/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Denov tumani budjetining 2026-yilgi daromadlari **203 089 820,0 ming.so‘mga** va xarajatlari esa **203 089 820,0 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Denov tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **560 825 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **2 789 000,0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari v.v.b Sh.Isanov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Primov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Xaydarov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsinhamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Denov tumani Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (O.Niyozov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari v.v.b Sh.Isanov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

NIYAZOV ONAR ABDURAXMONOVICH

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-112-8-111-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Denov tumanining 2026-yil uchun mahalliy budjet daromadlari prognozi

ming so‘m

№	Daromad turlari	Jami prognoz
1	QQS solig‘i	399 150
2	Foyda solig‘i	716 850
3	Aylanmadan olinadigan soliq	12 776 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	74 642 820
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari bo‘yicha to‘lanadigan daromad solig‘i	3 060 000
6	Aksiz solig‘i	0
	shu jumladan:	
	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*0*
	Alkogol mahsulotlari	*0*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	12 507 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	24 564 000
9	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	41 766 000
10	Yuridik shaxslar yer solig‘i	26 312 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 150 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 496 000
	Ma‘lumot uchun	
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	2 592 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0

14	Davlat boji	0
15	Yigʻimlar	0
16	Jarimalar	0
17	Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari	700 000
	JAMI:	**203 089 820**

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-112-8-111-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026 yil uchun Denov tumani budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**203 089 820,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**203 089 820,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1.	**Maktabgacha va maktab ta’limi bulimiga**	**59 898 380,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	53 100 380,0
	“Mening maktabim”	6 798 000,0
2.	**Obodonlashtirish boshqarmasini saqlash xarajatlariga**	**20 556 451,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	20 556 451,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3.	**Yoshlar agentligini saqlash xarajatlari**	**7 734 789,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	7 734 789,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	**Madaniyat bulimiga**	**1 857 802,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 857 802,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Denov tuman 14 bolalar musika va san’at maktabi**	**2 052 693,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 052 693,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Denov tuman 16 bolalar musika va san’at maktabi**	**3 243 553,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 243 553,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	**Sport maktabiga**	**12 391 743,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 391 743,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8.	**Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari huzuridagi Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi**	**803 893,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	803 893,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9.	**Denov tumani Suv yetkazib berish xizmati DM**	**2 212 139,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 212 139,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10.	**Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**4 557 708,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 557 708,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11.	**Tuman hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi**	**613 300,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	613 300,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12.	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka kumaklashish bulimi**	**2 272 126,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 272 126,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13.	**tuman Iqtisodiyot va moliya bulimiga**	**3 497 886,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 497 886,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14.	**tuman hokimligiga (hokimiyat apparti va zaxira jamg‘armasi)**	**9 844 665,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 055 665,0
	zahira jamg‘armasi	2 789 000,0
15.	**tuman hokimligiga (hokim yordamchilari)**	**11 921 975,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 921 975,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16.	**tuman hokimligiga (Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi)**	**329 451,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	329 451,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17.	**tuman hokimligiga (Qishloq xo‘jaligi bo‘limi)**	**1 066 066,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 066 066,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18.	**tuman hokimligiga (Qurilish va uy joy kommunal bo‘limi)**	**643 578,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	643 578,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

19.	**Mahalliy budjetlarda"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**2 739 067,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 739 067,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20.	**Ko‘niktirish markaziga**	**609 651,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	609 651,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
21.	**Oila va xotin qizlar bo‘limi xarajatlariga**	**4 743 784,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 743 784,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22.	**Xalq qabulxonasi xarajatlariga**	**160 162,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	160 162,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23.	**Axborot kutubxona markazi xarajatlariga**	**733 852,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	733 852,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga**	**48 605 106,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	48 605 106,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Denov tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-112-8-111-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

Foiz hisobida

№	Hudud lar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Denov tumani	0%	3%	100%	97%	0%	46%	100%	54%	0%	100%	100%	0%	0%	3%	100%	97%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

Foiz hisobida

№	Hududlar nomi	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga

		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Denov tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%

Foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Denov tumani	0%	100%	0%	100%	0%	100%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

Izoh:

1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar budjetiga qoldiriladi.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-112-8-111-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Denov tuman mahalliy budjetlarining 2026 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**203 089 820,0**	**203 089 820,0**
Denov tumani	203 089 820	203 089 820

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-112-8-111-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Tuman mahalliy budjetida 2026-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**560 825,0**
	shundan	
1	Denov tumani	**560 825,0**